
Obodonlashtirish ishlari davom etadi

Bugungi kunda mahallalarda aholi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, infratuzilma holatini yaxshilash, qurilish, tahmirlash va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish maqsadida tuman hokimi boshchiligidagi ishchi guruhi mahallalardagi tahmirtalab ko'p qavatli uylarni tashqi qismlarini tahmirlash, tahmirtalab ko'chalarga shag'al va tosh yotqizish, har bir xonadon va ko'chalarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida jadallik bilan ishlar amalga oshirilmoqda. Mahallalar hududidagi uylar atroflari begona o't o'lanlardan tozalanib, mavjud daraxtlarga shakl berish va butalash ishlari bajarildi.

* * *

Obodonlashtirish va tozalik har kunlik hayotiy ehtiyojimizga aylanmoqda. Bu xayrli va ezgu ishlar aslo mavsum tanlamaydi. Zero, saranjom-sarishtali joyda qut-baraka bo'ladi. Orastalik bizning qon-qonimizga singib kelayotgan qadriyatlardan biri, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Darvoqe, uy ham, ko'cha ham o'zimizniki, uning tozaligi va obodligi esa ona Vatanimiz go'zalligiga go'zallik qo'shadi.

Darhaqiqat, tumanda bugungi kunda barcha mahallalar obod go'shalarga, ko'rkam maskanga aylanib, namunaviy xonadon va ko'chalar soni ortib bormoqda. Natijada odamlarimizning o'z hayotiga bo'lgan ishonchi yuksalib, yashashga, kelajakka bo'lgan intilishi kuchaymoqda. Obodlik bor joyda, fayzu baraka, rivojlanish bo'ladi.

2021-07-23 06:24:07